

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KAMOLDINOVA DIYORA JALOLDDIN QIZI

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PSIXOLOGINING O‘YIN
MUHITIDA BOLA PSIXIK RIVOJLANISHIGA TA’SIRI XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI B O‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
psychological Sciences**

Kamoldinova Diyora Jalolddin qizi

Ma'ktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining o'yin muhitida bola psixik rivojlanishiga ta'sir xususiyatlari..... 3

Камолдинова Диёра Жалолдин қизи

Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде.....25

Kamoldinova Diyora Jalolddin qizi

Features of the influence of a psychologist of a preschool educational organization on the mental development of a child in a play environment..... 49

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KAMOLDINOVA DIYORA JALOLDDIN QIZI

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PSIXOLOGINING O‘YIN
MUHITIDA BOLA PSIXIK RIVOJLANISHIGA TA’SIRI XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI B O‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.PhD/P1300 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (psi-xik@.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalimova Mashraboy Voxidovna,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Kamilova Nodira G‘ayratovna,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Norbosheva Maqsuda Achilovna,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD30/30.01.2020.P.26.02. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « _____ » _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100185, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu kengach@edu.uz

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-3 2;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « _____ » _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil « _____ » _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, psixologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola psixik rivojlanishini ta'minlash uchun o'yin faoliyatini tashkil etish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki aynan maktabgacha yoshda o'yin faoliyati bolaning psixik rivojlanishida yetakchi faoliyat turi hisoblanadi va bu jarayon orqali bola dunyoni bilishi, o'zini anglashi va jamiyat bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, kelajagini o'ylagan har bir mamlakat aholisini o'rtacha 23-27 foizini bolalar tashkil qiladi¹. Bu borada bolalar uchun ta'lim-tarbiya jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining o'yin faoliyatini maqsadli tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama sog'lom rivojlanishining nazariy-metodologik va amaliy asoslari hamda zamonaviy modelini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, bolaning maktabgacha ta'lim jarayonida ijtimoiy hayotga psixologik moslashishi uchun o'yin muhitida psixologning noto'g'ri munosabati ularning ijtimoiy moslashuvchanligining pasayishiga olib kelishi mumkinligi, bolalar o'zaro munosabatlari, hissiy irodaviy sohalarning rivojlanish dinamikasi hamda yoshga oid psixologik jihatlarini aniqlash masalalari yetarli darajada olib borilmaganligi bois, mazkur muammoni alohida tadqiqot predmeti sifatida zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda inson, uning har tomonlama kamol topishi, farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarishning zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...bolalarni maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish ishlari yangi sifat bosqichiga ko'tarish...»², «maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish»³ ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shu boisdan, maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining o'yin muhitida bola psixik rivojlanishiga ta'sir xususiyatlari mavzusini ilmiy-amaliy tadqiq etish muhim bo'lib, uning psixologik jihatlarini aniqlash uchun zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» Strategiyasi to'g'risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmonlari, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

¹ INSPIRE: Семь стратегий по ликвидации насилия в отношении детей. <http://www.who.int/violenceinjuryprevention/violence/inspire/ru> (манбаага мурожаат санаси: 25.03.2020 й.).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi»da <https://lex.uz/docs/5841063>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi»da <https://lex.uz/docs/5841063>

to'g'risida», 2018-yil 14-avgust PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyunda 369-son «Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va boshqa ushbu sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, Sh.Bekova, Sh.A.Do'stmuxammedova, F.Ganjiyev, G.H.Ermatova, Z.T.Nishanova, M.Norbosheva, A.R.Rasulova, I.Raximova, M.Taydjanova, A.T.Turg'unov, S.G.Xasanova, G.R.Xolboyeva va boshqalar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlari, psixologik muammolarining psixodiagnostikasi va korreksion rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etishning psixologik jihatlarini nazariy va amaliy tomondan ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlat Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan B.G.Ananyev, Yu.M.Antanyan, L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, V.I.Garbuzov, I.V.Dubrovina, A.I.Zaxarov, A.N.Leontev, M.I.Lisina, G.M.Kodjaspirova, R.S.Nemov, L.F.Obuxova, A.M.Prixojan, A.S.Spivakovskaya, D.B.Elkonin va boshqalar shaxsning yoshga doir psixologik xususiyatlarini, ruhiy o'zgarishlarning sabab va oqibatlari borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Xorij tadqiqotchilaridan V.Amen, L.A.Venger, Jo.Godfrua, M.Dorki, G.Eberleyn, J.A.Kelli, K.Levin, K.Rojers, B.Skinner, G.Sullivan, Ch.D.Spil'berger, S.S.Tomkins, R.Tamml, Z.Freyd, E.Fromm, Yu.L.Xanina va boshqalar tomonidan bolaning psixologik rivojlanishi asoslari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasining «Yoshlarning shaxsiy sifatleri shakllanishining psixologik jihatleri» mavzusidagi ilmiy-texnik loyiha doirasida bajarilgan (2021–2024 - y.y.).

Tadqiqotning maqsadi: maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining o'yin muhitida bola psixik rivojlanishiga ta'sir xususiyatlarini aniqlash asosida zarur tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatini tahlil qilish orqali psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy-nazariy asoslarini aniqlashtirish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi va psixologining o'yin muhitidagi rolini aniqlash asosida bolalarning psixik rivojlanishiga ta'sirini tadqiq etish;

bolalarning o‘yin jarayonida psixik iy jinslararo farqlar va asosiy omillarni aniqlash;

bolalarning psixik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun samarali rivojlantiruvchi dasturni yaratish va uning samaradorligini ta‘minlovchi tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha ta‘lim tashkiloti psixologining rivojlantiruvchi o‘yin muhitidagi faoliyatini diagnostika qilishi va korreksiyalashini tadqiq etish jarayoni belgilangan bo‘lib, tadqiqotga Andijon shahridagi 10, 39, 44-sonli MTT, «Orzular kemasi» NMTT, Toshkent shahridagi 14-sonli maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan jami 150 nafar 5-6 yoshli bolalar, 89 nafar tarbiyachi-pedagog va psixologlar respondentlar guruhini tashkil etdi.

Tadqiqot predmetini maktabgacha ta‘lim tashkiloti psixologining o‘yin muhitida bola psixik rivojlanishiga ta‘sir xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, L.A.Venger, O.M. Dyachenkolarning kognitiv jarayonlar darajasini diagnostika qilish metodi, A.M.Shetininaning “Bolalarda empatik reaksiyalar va xulq-atvorlarning namoyon bo‘lish xarakteri” so‘rovnomasi, A.M.Shtetinina, M.A.Nikiforovalarning “Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatlarning namoyon bo‘lishini kuzatish xaritasi” so‘rovnomasi, hammualliflikdagi “Bolaning tarbiyaviy dasturlarda ishtirokining psixologik xususiyatlarini aniqlash” (M.V.Xalimova, D.J.Kamoldinova) so‘rovnomasi metodikalari q‘ollanilgan. Olingan natijalarning statistik ishonchligi chastotali tahlil, Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyasiyasi koeffitsiyenti orqali tasdiqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda o‘yin faoliyati psixologik-pedagogik tizim bo‘lganligi tufayli, psixolog bolalarni rivojlantiruvchi ishlarini o‘yin faoliyatida amalga oshirishi samarali ta‘sir ekanligi aniqlangan;

bolaning o‘yin faoliyatidagi “mustaqillik” yoki “tobelik”, “faollik” yoki “passivlik” xususiyati bolaning psixo-emotsional va shaxsiy rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi yetakchi mezon ekanligi dalillangan;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda integrativ o‘yin texnologiyalari, ularning kognitiv jarayonlariga ta‘sir etishda va shaxsiy sifatlari shakllanishida muhim zarurat ekanligi isbotlangan;

maktabgacha tarbiya tashkilotida tarbiyalanayotgan bolalarning aqliy rivojlanish dinamikasini kuzatish zaif va o‘rtacha o‘quvchilarni kuchli, eng rivojlanganlar darajasiga ko‘tarish uchun maqbul imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratish psixokorreksion dastur samaradorligiga tegishli ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Bolaning tarbiyaviy dasturlarda ishtirokining psixologik xususiyatlarini aniqlash” mualliflik so‘rovnomasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

maktabgacha ta‘lim tashkiloti psixologining bolalarda o‘yin muhitida shakllantirishga psixologik tayyorgarligini orttirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda o‘yin faoliyatini rivojlantiruvchi psixologning psixokorreksion dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot obyektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirishlarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentivligi, tanlagan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, izlanishlar aniq va reja bosqichlarda bir-birini to‘ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi, tadqiqot davomida shakllantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyatga joriy etish, kontent-tahlil, t-mezoni va ma’lumotlarni qayta ishlash SPSS dasturi vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirish asoslari bolaning hissiy emotsional holatlari, irodaviy sifatlarining ortishiga ilmiy jihatdan yondashilganligi, ixtiyoriy diqqatning barqarorlashuvi, muloqotchanlikni rivojlanishida psixologik hususiyatlarini inobatga oluvchi psixodiagnostika va psixokorreksion choralarni, ishlarni ishlab chiqish imkoniyatini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan g‘oyalar va olingan empirik ma’lumotlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda kognitiv rivojlanishning darajaviy ifodalanishini shaxsiy va vaziyatga oid omillarni aniqlashtirishga, oilada ota-ona va bola munosabatlari samaradorligini oshirish orqali boladagi tortinchoqlik hissining pasayishi, o‘z-o‘zini qadrlash hissini ko‘tarishga, bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarni aniqlashtirishga, oliy ta’lim tashkilotlarida “Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya”, “Psixokorreksiya” va “Psixologik maslahat” fanlarini amaliy manba bilan boyitishga hamda amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Maktabgacha yoshdagi o‘yin faoliyatining bola kognitiv rivojlanishiga psixologik ta’siri bo‘yicha erishilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda o‘yin faoliyati psixologik-pedagogik tizim bo‘lganligi tufayli, psixolog bolalarni rivojlantiruvchi ishlarini o‘yin faoliyatida amalga oshirishi samarali ta’sir ekanligi aniqlanganligiga oid ilmiy ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 25 yanvardagi PM-288 a buyrug‘iga asosan “Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya” moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 14-dekabrda PM-288-a ma’lumotnomasi.) Natijada o‘yin faoliyatini pedagogic-psixologik tizim sifatida psixolog faoliyatida ko‘rib chiqish imkoniyati yaratilgan;

bolaning o‘yin faoliyatidagi “mustaqillik” yoki “tobelik”, “faollik” yoki “passivlik” xususiyati bolaning psixo-emotsional va shaxsiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi yetakchi mezon ekanligi dalillangan xulosalar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston

Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 25 yanvardagi PM-288 a buyrug'iga asosan "Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya" moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 14-dekabrda PM-288-a ma'lumotnomasi.) Natijada o'yin muhiti va bolaning shaxsiyat turini o'zaro bog'lash metodologiyasi ishlab chiqilgan;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda integrativ o'yin texnologiyalari, ularning kognitiv jarayonlariga ta'sir etishda va shaxsiy sifatlari shakllanishida muhim zarurat ekanligi isbotlanganligi haqidagi ma'lumotlaridan Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 25 yanvardagi PM-288 a buyrug'iga asosan "Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya" moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 14-dekabrda PM-288-a ma'lumotnomasi.) Natijada bolaning psixik rivojlanishini korreksiyalash uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni va maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining korreksion ishlari usullarini tadqiq etish imkoniyati yaatilgan;

maktabgacha tarbiya tashkilotida tarbiyalanayotgan bolalarning aqliy rivojlanish dinamikasini kuzatish zaif va o'rtacha o'quvchilarni kuchli, eng rivojlanganlar darajasiga ko'tarish uchun maqbul imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratish psixokorreksion dastur samaradorligiga tegishli ekanligi isbotlangan ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 25 yanvardagi PM-288 a buyrug'iga asosan "Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya" moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 14-dekabrda PM-288-a ma'lumotnomasi.) Natijada rivojlantiruvchi o'yin muhitining asosiy psixik jarayonlar rivojlanishiga va maktabgacha yoshdagi bola shaxsining shakllanishiga ta'sirini o'rganish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosi ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalangan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning «KIRISH» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, dissertatsion tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan Oliy o'quv

muassasasi ilmiy-tadqiqot rejaları bilan aloqadorligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyektı, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangilik va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchlıligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Maktabgacha yoshda o'yin faoliyati muammosining nazariy metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining o'yin faoliyatidagi ishlari eksperimental psixologik nazariyalarida o'rganilishi va maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi bu eng avvalo bolalarni chuqur tushunuvchi va biluvchi, psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini farqlay oluvchi, ularning individual va yoshiga xos xususiyatlarini biluvchi va o'z faoliyatida sohadagi ilmiy asoslangan bilimlarga asoslanuvchi shaxsligi o'rganilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin muhitining psixologik komponentlarini shakllantirish bolaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, chunki o'yin bolaning bilish, emotsional va ijtimoiy rivojlanishining asosiy vositasi hisoblanishi hamda o'yin muhitini yaratishda psixologik jihatlar hisobga olinmasa, bolalar rivojlanishida muayyan cheklovlar paydo bo'lishi mumkinligi tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning «**Maktabgacha yoshda o'yin faoliyatining bola kognitiv rivojlanishiga ta'siri jarayonini empirik o'rganish**» deb nomlangan ikkinchi bobining dastlabki qismida tanlab olingan metodikalarning maqsad va vazifalari va ulardan kutilayotgan natijalar bo'yicha tavsiiyalar berilgan.

Tadqiqotda o'yin muhitining psixologik-pedagogik diagnostikasi, psixokorreksion va rivojlantiruvchi dasturlarning asosiy psixik jarayonlar va bolaning shaxs sifatida rivojlantirishga ta'sirini o'rganishda, biz Andijon shahridagi 44, 39, 10-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, "Orzular kemasi" nodavlat maktabgacha tashkiloti hamda Toshkent shahridagi 14-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan jami 150 nafar 5-6 yoshli bolalar, 5 nafar MTT psixologlari, 84 nafar tarbiyachi-pedagoglari respondentlar guruhini tashkil etdi. Tadqiqotimizning dastlabki qismida biz tomonimizdan eksperiment o'tkazilayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog – tarbiyachilarining o'zlari faoliyat olib borayotgan guruhdagi bolalar bilan munosabatlari qay darajada to'g'ri yo'lga qo'yilganligini tekshirish maqsadida E.E.Alekseyevaning "Tarbiyachining bolaga munosabati" so'rovnomasidan foydalandik. So'rovnoma maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarning bolalar bilan o'zaro munosabatlarini qanchalik samimiy, qo'llab-quvvatlovchi yoki nazoratga asoslanganligini aniqlashga yordam beradi deb hisobladik. Bunda maqsad sifatida tarbiyachilarning bolalarga bo'lgan hissiy, pedagogik va psixologik munosabatlarini o'rganish, munosabatlardagi ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlash, tarbiyachilar tomonidan bolalar bilan ishlashda qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlarni psixologik nuqti-nazardan baholash, bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishdan iborat bo'ldi.



1-rasm. E.E.Alekseyevaning “Tarbiyachining bolaga munosabati” so‘rovnomasi natijalari

So‘rovnoma natijalari tahlili tarbiyachining bolaga bo‘lgan munosabatida buzilishlar mavjudligini (yashirin yoki aniq), bu buzilishlarning joyi va sabablarini aniqlash imkonini berish bilan birga bu sabablarning bola shaxsi rivojlanishiga salbiy ta’sirlarini o‘rganishni osonlashtirdi. Jumladan, biz tomonimizdan tadqiqot o‘tkazilgan bog‘chalardagi 26 ta 5-6 yoshli guruhlardagi 89 nafar tarbiyachi-pedagoglarning yuqori foizi (64,2%) o‘z “guruhlarida qiz bolalarning ko‘p bo‘lishlarini” hohladilar.

Biz otkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida MTT psixologlari uchun tarbiyachilarga bolalar bilan munosabatlarini yaxshilash uchun quyidagi tavsiyalarni berish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Tadqiqotimizning keying qismida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiya jarayonlarida foydalanilayotgan o‘yin mashg‘ulotlarini bola rivojlanishiga tas’irini baholash maqsadida ular bilan kichik “Rivojlantiruvchi o‘yin muhitida bolaning faoliyatini baholash” mualliflik so‘rovnomasini o‘tkazdik. So‘rovnomaning maqsadi bolalarning rivojlantiruvchi o‘yin muhitidagi faoliyatini baholash hisoblandi. Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, o‘yin muhiti shaxsni shakllanishiga ta’sir qiluvchi o‘ziga xos faoliyat turi sifatida bolani erkin va faol rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratib berishi bilan juda muhimdir.

Tadqiqotda biz tomonimizdan tanlangan maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan yuqorida aytib o‘tganimizdek 5 nafar MTT psixologlari, 84 nafar tarbiyachi-pedagoglari respondentlar guruhini tashkil etdi.

So‘rovnomaning maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin muhitida shakllanadigan mustaqillik va tobelik darajalarini, ularning ijtimoiy moslashuvi hamda pedagogik ta’sirni o‘rganish. Ushbu tadqiqot o‘yin jarayonida bolalarning mustaqillik darajasi, kattalar bilan o‘zaro ta’sirga qanday moslashishi, jazolash yoki tashabbus ko‘rsatish imkoniyati kabi psixologik jihatlarni tahlil qilish orqali maktabgacha ta’lim muhitining samaradorligini baholashga qaratilgan. Ushbu so‘rovnomaning o‘tkazishida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin muhitining sifatli tashkil etilishi ularning psixologik rivojlanishi, mustaqillik darajasi, tashabbuskorligi va ijodiy fikrlashiga

bevosita ta'sir ko'rsatadi, hamda tarbiyachilar tomonidan bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ularga tashabbus ko'rsatish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi degan taxmin ilgari surildi.

1-jadval.

Tarbiyachi va psixologlarning o'yin faoliyatiga doir tushunchalari, (n=89)

| O'yin faoliyati turi | O'yinda kimning manfaatlari birinchi orinda turadi? | | Ozaro tasir jarayonida kim kimga moslashadi? | | Qanday tarbiya shakli amalga oshiriladi? | |
|-------------------------|---|------|--|------|--|------|
| | javoblar | % | javoblar | % | javoblar | % |
| Didaktik | Mustaqil (Bolaning) | 36 | Mustaqil (Bolaning) | 25 | Mustaqil (Individual) | 59,5 |
| | Tobe (Guruhning) | 64 | Tobe (Kattalarning) | 74 | Tobe (Guruhiy) | 40,5 |
| Tarbiyaviy | Mustaqil (Bolaning) | 31,3 | Mustaqil (Bolaning) | 38 | Mustaqil (Individual) | 43,8 |
| | Tobe (Guruhning) | 68,7 | Tobe (Kattalarning) | 72 | Tobe (Guruhiy) | 56,2 |
| Rivojlantiruvchi | Mustaqil (Bolaning) | 50,6 | Mustaqil (Bolaning) | 43,8 | Mustaqil (Individual) | 46 |
| | Tobe (Guruhning) | 50,4 | Tobe (Kattalarning) | 56,2 | Tobe (Guruhiy) | 54 |

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlantiruvchi o'yin muhiti bolalarning mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiy tafakkur va ijtimoiy moslashuv kabi muhim psixologik xususiyatlarini rivojlantirish uchun katta ahamiyat kasb etadi. O'yin faoliyati bolaning ijtimoiy hayotga integratsiyalashuvi, shaxsiy manfaatlarini anglash va guruh bilan hamkorlik qilish kabi jihatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

So'rovnoma natijasida quyidagi xulosalarga kelishimizga imkoniyat yaratdi: bolalarning o'yin jarayonida mustaqillik va tobelik o'rtasidagi muvozanatni qanday shakllantirayotganini tahlil qiladi.

mustaqillikni targ'ib qiluvchi o'yin sharoitlari bolalarning o'z fikrini bildirish, tashabbus ko'rsatish va o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat olish kabi jihatlarni rivojlantiradi. Tobe o'yin sharoitlari esa, aksincha, bolaning kattalar yoki guruh ta'siriga bo'ysunishiga olib keladi, bu esa kelajakda ijtimoiy konformizmni kuchaytirishi va mustaqil qaror qabul qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

tarbiyachi va psixologlarning roli bolalarning o'yin jarayonida o'zini namoyon qilishi yoki cheklanishi bilan bog'liq. Pedagogik rahbarlikning haddan tashqari qattiq bo'lishi bolalarning tashabbuskorligini susaytirishi mumkin. Aksincha, pedagoglar bolalarga erkin harakat qilish imkoniyatini bersalar, bu ularning ijodkorligi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.

agar kattalar bolaga moslashsa, bu bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va o'z fikrini erkin ifodalashga imkon yaratadi. Aksincha, agar bola kattalar ta'siriga

to'liq moslashishga majbur bo'lsa, uning ijtimoiy moslashuv jarayoni qiyinlashishi va passivlik shakllanishi mumkin.

2-jadvalda pedagog-tarbiyachi va psixologlar tomonidan bolalar bilan o'tkaziladigan rivojlantiruvchi o'yin muhitida ularning o'yin faoliyatidagi ishtirokini tahlil qilish uchun tuzgan savollar bloki natijalari berilgan.

2-jadval.

Tarbiyachi va psixologlarning o'yin faoliyati tuzilishi bo'yicha tahliliy tushunchalarining natijalari, (n=89)

| O'yin faoliyati turi | O'yinda bolani jazolash uchun harakat qilinadimi? | | O'yinda bola tashabbus ko'rsatish imkoniyatiga egami? | | O'yin jarayonida tarbiyachi "xuddi mendek bajaring" jumlasini ishlatadimi? | |
|----------------------|---|------|---|------|--|------|
| | Javoblar | Foiz | Javoblar | Foiz | Javoblar | Foiz |
| Didaktik | Faollik (yo'q) | 30,3 | Faollik (ha) | 32,6 | Faollik (yo'q) | 35 |
| | Sustlik (ha) | 69,7 | Sustlik (yo'q) | 67,4 | Sustlik (ha) | 65 |
| Tarbiyaviy | Faollik (yo'q) | 55,0 | Faollik (yo'q) | 58,4 | Faollik (yo'q) | 43,8 |
| | Sustlik (ha) | 45,0 | Sustlik (ha) | 41,6 | Sustlik (ha) | 51,2 |
| Rivojlan-tiruvchi | Faollik (yo'q) | 39,3 | Faollik (yo'q) | 46 | Faollik (yo'q) | 55 |
| | Sustlik (ha) | 60,7 | Sustlik (ha) | 34 | Sustlik (ha) | 45 |

“Bu o'yin muhitida bolani jazolash uchun harakat qilinadimi?” savoliga “ha” va “yo'q” javoblari taqdim etildi. Jazoning yo'qligi bolaning faolligini rivojlantirishga yordam beradigan shart sifatida ko'rib chiqiladi, “faollik” shkalasi bo'yicha ball qo'yiladi va agar ma'lum bir o'yin muhitida jazo tizimi mavjud bo'lsa (to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita foydalaniladi) passivlik shkalasi bo'yicha tayinlangan ball hisoblanadi.

“Ushbu o'yin muhiti bolada biron bir tashabbus ko'rsatish imkoniyatini hosil qilishga undaydimi?” javoblar “ha” va “yo'q” ko'rinishida. Agar ko'rib chiqilayotgan o'yin muhitida bolaning tashabbusini (ham ongli, ham ongsiz) ijobiy mustahkamlashni aytish mumkin bo'lsa, bu uning faoliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat sifatida talqin qilinadi va "faollik"ga ball qo'yiladi. Agar, qoida tariqasida, bolaning tashabbusi uning uchun turli xil muammolarga olib kelishi mumkin bo'lsa, unda "passivlik" shkalasi bo'yicha ball beriladi.

So'rovnomamizning ikkinchi qismidagi javoblar natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatini yanada samarali tashkil etish va bolalarning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda quyidagi jihatlarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Bolalarning shaxsiy fikrlash qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbus ko'rsatish darajasini oshirish uchun bolalarga o'yin stsenariylarini o'zlari tanlashga

imkon berish. Ularni muammolarni mustaqil hal qilishga undash. Tashabbus va ijodkorlikni rag'batlantirish. Yangi g'oyalarni sinab ko'rishga imkon yaratish. Bolalarning ijodiy yechimlarini qo'llab-quvvatlash va ularga rag'bat berish. O'yin faoliyatida bolalar turli rollarni tanlashi va bajarishi uchun sharoit yaratish. Bolalarning o'z fikrlarini bildirishiga imkon berish va ularni rag'batlantirish. Bolalarning psixologik rivojlanishini rag'batlantirish uchun jazolash o'rniga ijobiy mustahkamlash tizimini joriy etish lozim. Noto'g'ri xatti-harakat uchun bolaga muqobil tanlov berish. Bolaning harakatlarini e'tirof etish va maqtash orqali ularning ijtimoiy xulq-atvorini mustahkamlash. Rag'bat sifatida tushunarli fikr-mulohazalar berish, yutuqlarni belgilash va o'yin orqali mukofotlash. Bolalar o'z xatolaridan saboq oladigan va o'rganadigan muhit yaratish Bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi o'yin faoliyatining sifati bilan uzviy bog'liq. Rivojlantiruvchi o'yin muhiti bolalarga mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish psixologning ijodkorligiga bevosita bog'liqligi aniqlandi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat olib boruvchi psixologlar o'yin muhitini tashkil etishda, bolalarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning psixik rivojlanishiga yo'naltirilgan metod va texnikalarni qo'llashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining o'yin muhiti orqali bola psixik rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sir xususiyatlarini empirik jihatdan o'rganish bu jarayonda bolaning kognitiv rivojlanishi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini asosiy mezon sifatida ko'rib chiqishni taqazo etadi.

O'yin faoliyatining bolaning psixik rivojlanishiga ta'siri – o'yin jarayonida diqqat, xotira, tafakkur va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanish dinamikasi. Psixologik yondashuvlar – maktabgacha ta'lim psixologining o'yin orqali bola rivojlanishiga yordam beruvchi diagnostik va psixokorreksion usullari. O'yin muhitining ijtimoiy moslashuvga ta'siri – bolalarning muloqot qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy rollarni o'zlashtirish qobiliyatlarining shakllanishi. Mustaqillik va tashabbuskorlik darajasi – bolaning o'yin davomida mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilishi va tashabbus ko'rsatish qobiliyatlari.

Tadqiqot jarayonida L.A.Venger, O.M.Dyachenkolarning "Kognitiv jarayonlar darajasini diagnostika qilish metodikasi"ni MTT tarbiyalanuvchilarida o'tkazildi. Olingan natijalar 3-jadvalda berilgan.

3-jadvalda Andijon shahar 44-MTT o'g'il va qizlarida obyektlarni xususiyatlarini kiritish harakatlarini o'zlashtirish darajasida ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlarni kuzatishimiz mumkin bo'ldi ($t=2,112$; $p<0,05$). Qizlarning umumiy o'rtacha arifmetik qiymati o'g'il bolalarga nisbatan quyiroq ko'rinishda ifodalandi. Xuddi shunday ahamiyatli farqlar 39-MTT bolalarida ham kuzatildi ($t=-2,071$; $p<0,05$). Bunda esa qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan yuqoriroq ballarni jang'arishdi. Bolalarning geometrik shakllar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning asosi ularning shaklni idrok etishga qaratilganligidir. Ko'nikma bolaga turli xil geometrik figuralarni tanib, farqlash va tasvirlash imkonini beradi:

nuqta, to'g'ri chiziq, egri chiziq, diagonal, segment, burchak, ko'pburchak, kvadrat, to'rtburchak va hokazo. Buni yetarli darajada ko'rsatish uchun biz geometrik figurani va mos keladigan narsalarni tasvirlab beramiz. Masalan: to'rtburchak, kvadrat, to'rtburchak, doira. Figuraning shaklini idrok etish nafaqat uning boshqa belgilari bilan shaklni, ko'rish, tanib olish, balki shaklni narsadan mavhumlashtirish, uni boshqa narsalarda ko'rish qobiliyatiga ham qaratilgan bo'lishi kerak.

3-jadval

L.A.Venger, O.M.Dyachenkolarning "Kognitiv jarayonlar darajasini diagnostika qilish metodikalari" jins tavofutlari, (Styudent-t)

| MTTlar | Jinsi | N | O'rtacha qiymat | Standart og'ish | t | p |
|----------------|-------------|----|-----------------|-----------------|--------|-------|
| 44-MTT | O'g'il bola | 12 | 15,25 | 4,21 | 2,112 | ,040* |
| | Qiz bola | 13 | 12,58 | 4,73 | | |
| 10-MTT | O'g'il bola | 12 | 16,33 | 5,35 | ,686 | ,500 |
| | Qiz bola | 13 | 15,00 | 4,36 | | |
| 39-MTT | O'g'il bola | 12 | 13,50 | 3,23 | -2,071 | ,050* |
| | Qiz bola | 13 | 16,62 | 4,25 | | |
| Orzular kemasi | O'g'il bola | 12 | 14,67 | 3,87 | ,917 | ,369 |
| | Qiz bola | 13 | 13,31 | 3,55 | | |
| 14-MTT | O'g'il bola | 23 | 14,83 | 4,92 | ,173 | ,864 |
| | Qiz bola | 27 | 14,59 | 4,63 | | |

*p<0,05, **p<0,01, ***p<0,001

Bunday yondashuv bolalarning idrok qilish uslubi va atrof-muhit ta'siriga bog'liq bo'lishi mumkin. Uning sabablar tahlili o'g'il bolalar ko'proq fazoviy idrok qilishga moyil bo'lishi mumkin, Qiz bolalar esa ko'proq detallashtirish va tahlil qilishga moyil bo'lishlari mumkin, bu esa ba'zi hollarda ularning yaxshiroq natijaga erishishiga sabab bo'lgan. Geometrik shakllarni idrok qilish va umumlashtirish har bir bola uchun individual ravishda shakllanadi, bu esa o'qituvchilar va psixologlardan differensial yondashuvdan foydalanishlarini talab etadi.

4-jadval

L.A.Venger, O.M.Dyachenkolarning "Kognitiv jarayonlar darajasini diagnostika qilish" metodikasi, jins tavofutlari, (Styudent-t)

| MTTlar | Jinsi | N | O'rtacha qiymat | Standart og'ish | t | p |
|----------------|-------------|----|-----------------|-----------------|--------|-------|
| 44-MTT | O'g'il bola | 12 | 9,88 | 4,38 | ,025 | ,980 |
| | Qiz bola | 13 | 9,85 | 3,76 | | |
| 10-MTT | O'g'il bola | 12 | 12,17 | 3,74 | 2,176 | ,040* |
| | Qiz bola | 13 | 8,85 | 3,89 | | |
| 39-MTT | O'g'il bola | 12 | 11,25 | 3,98 | ,600 | ,554 |
| | Qiz bola | 13 | 10,23 | 4,51 | | |
| Orzular kemasi | O'g'il bola | 12 | 7,58 | 2,47 | -1,169 | ,255 |
| | Qiz bola | 13 | 9,00 | 3,46 | | |
| 14-MTT | O'g'il bola | 23 | 10,87 | 3,11 | ,906 | ,369 |
| | Qiz bola | 27 | 9,93 | 4,16 | | |

*p<0,05, **p<0,01, ***p<0,001

“Mantiqiy fikrlash uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish darajasi” topshiriqlari bo‘limida 10-MTT o‘g‘il bolalari qiz bolalarga nisbatan o‘rtacha arifmetik ko‘rsatgichlarida ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlarni kuzatishimiz mumkin bo‘ldi ($t=2,176$; $p<0,05$). Katta maktabgacha yoshdagi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish nutqni intellektual muammolarni hal qilish va hal qilish vositasi sifatida qo‘llash orqali yordam beradi. Aynan fikrlashda nutqning ortib borayotgan ulushi og‘zaki-mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga nutq katta ta'sir ko‘rsatadi, chunki nutq muammoni hal qilish usuli sifatida asta-sekin harakatni almashtiradi va amaliy harakat aqliy harakatga aylanadi. Ushbu bosqichda, bola allaqachon umumlashmalar yordamida muayyan muammoni hal qila oladi. Bu jarayon bolaning aqliy faoliyatini shakllantirishning muhim bosqichidir.

Yuqoridagi bolalarda jinslararo tavofutlarni L.A.Venger, O.M.Dyachenkolarning “Kognitiv jarayonlar darajasini diagnostika qilish metodikalari” orqali tahlil qilish bizdagi quyidagi umumiy kichik xulosalarga kelishimizga imkon yaratdi.

Differensial yondashuv - har bir bola individual ravishda o‘ziga xos kognitiv rivojlanish jarayoniga ega bo‘lgani uchun o‘yinlar va ta’lim usullarini moslashtirish lozim.

O‘yin orqali o‘rganish - idrok, identifikatsiya va fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun didaktik va rolli o‘yinlardan foydalanish zarur.

Jinslararo yondashuv - ba’zi kognitiv jarayonlarda farqlar mavjud bo‘lsa-da, asosiy e’tibor har bir bolaning shaxsiy rivojlanishiga qaratilishi kerak.


Nutq va mantiqiy fikrlash rivoji: Mantiqiy fikrlashni mustahkamlash uchun suhbat, muammoli vaziyatlar va tahlil qilish topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu xulosaviy tahlillar maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi uchun bolaning kognitiv rivojlanishini har tomonlama tushunish va unga mos keluvchi metodik yondashuvni ishlab chiqishda qo‘l keladi.

Tadqiqot ishmizning keying bosqichida biz bolaning psixik rivojlanishi kognitiv, emotsional va ijtimoiy jihatlariga bog‘liqligini inobatga olgan holda bolalarda empatik reaksiyalar va xulq-atvor shakllanishi kognitiv rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liqligi jihatidan A.M. Shetininaning "Bolalarda empatik reaksiyalar va xulq-atvorlarning namoyon bo‘lish xarakteri" so‘rovnomasini o‘tkazdik. Bu esa psixologning o‘yin muhitini to‘g‘ri tashkil etishi orqali bolaning psixik rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishni talab qiladi.

Bunda A.M. Shetininaning metodikasi kognitiv rivojlanish va empatiya shakllanishi, ya’ni bolaning empatik reaksiyalari va xulq-atvori uning kognitiv rivojlanish darajasiga bog‘liqligi hisobga olindi. Ushbu bog‘liqlik L.Vigotskiy va J.Piagening rivojlanish psixologiyasi nazariyalariga mos keladi. L.Vigotskiy fikricha, bolaning yuqori kognitiv funksiyalari ijtimoiy ta’sir va o‘zaro muloqot orqali rivojlanadi. O‘yin jarayonida bolalar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni o‘rganib, ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradilar. J.Piage esa bolaning kognitiv rivojlanishini aniq

bosqichlarga ajratib, ularning o‘yin orqali dunyoni tushunish qobiliyatini oshirishini ta’kidlagan.

Tadqiqotlar empatiyaning yoshga bog‘liq xususiyatlarini tavsiflaydi va boshlang‘ich va o‘rta maktabgacha yoshda empatik tajribalarning mohiyati o‘zini va sherikning mustaqil aloqa va tajriba ob'ekti sifatida farqlanishi (ajralishi) tufayli o‘zgarishini ta’kidlaydi.



2-rasm. A.M.Shetininaning "Bolalarda empatik reaksiyalar va xulq-atvorlarning namoyon bo‘lish xarakteri" so‘rovnomasi natijalari

Bolalar bilan muloqot qilish jarayonida tashqi ko‘rinishini ko‘rsatadi. Kattalar va tengdoshlar paydo bo‘lgan vaziyatlarning oqibatlarini oldindan bilish va o‘zlarini va boshqalarni hissiy jihatdan baholashga qodir, ya'ni. Emotsional-kognitiv desentratsiya mexanizmi ishlay boshlaydi, bu empatiyaning yanada murakkab shakllari - hamdardlik, empatiya, yordam rivojlanishini rag‘batlantiradi.

MTT tarbiyalanuvchi o‘g‘il-qizlari guruhlarini natijasini tahlil etganimizda yuqori foizda 40%lik daraja bilan “aralash empatiya tipiga” mansub bolalarni uchratishimiz mumkin bo‘ldi. Katta maktabgacha yoshi empatiya reaksiyasining o‘ziga xos shakli bilan tavsiflanadi, bu bolaning hissiy sohasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissiy munosabatdan axloqiy mezonlar va munosabatlar vositasida empatik kechinma shakliga aylantirish bilan izohlanadi.

Keyingi o‘rindagi shakllangan guruh egosentrik empatiya 53%lik guruhlar ham shakllanganligini kuzatishimiz mumkin bo‘ldi. Agar biz doimo hamma narsa haqida bahslashayotgan bolalarga qarajak, altruizm va empatiya shakllanmagan bo‘lsa munosabatlarida ko‘pincha nizolar kuzatilishini ko‘rishimiz mumkin. Empatiyani o‘ziga xos xususiyat, qobiliyat yoki shaxsiyat sifatida aniqlash mumkin. U ma'lum bir davomiylikdagi insoniy fazilatlar majmuasini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, hamma bolalar turli darajadagi empatiyaga ega asosan dastlabki yosh bosqichlarida egosentrik empatiya rivojlanganligini aniqlaymiz.

A.M. Shetininaning "Bolalarda empatik reaksiyalar va xulq-atvorlarning namoyon bo'lish xarakteri" so'rovnomasi natijalari shuni ko'rsatdiki, kognitiv rivojlangan bolalar empatik reaksiyalarni tezroq namoyon qiladi, bu esa ularning ijtimoiy munosabatlar va axloqiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Psixolog tomonidan tashkil etilgan o'yin muhiti bolaning psixik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, idrok, tafakkur, ijtimoiy moslashuv va axloqiy xulq-atvor shakllanishini rag'batlantiradi. Empatik xulq-atvorni shakllantirish uchun rolli, qoidali va dramatik o'yinlardan foydalanish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin muhitining to'g'ri tashkil etilishi nafaqat psixik rivojlanish, balki ijtimoiy moslashuv va shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga ham sezilarli darajada ta'sir qiladi.


Bolaning psixik rivojlanishi dinamik jarayon bo'lib, uni doimiy ravishda kuzatish va tahlil qilish kerak. Psixolog quyidagi usullar orqali kuzatuv olib borishi mumkin:

Bolalar o'yin faoliyati davomida qanday reaksiyalar ko'rsatayotganini tahlil qilish (muloqot qobiliyati, his-tuyg'ularni ifodalash, o'zini tutish usullari).

Bolalar o'rtasida kelib chiqadigan ijtimoiy muammolarni kuzatish va ularni hal qilish usullarini o'rganish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishini aniqlash uchun diagnostik metodlarni qo'llash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) bolalarning kommunikativ qobiliyatlari, ya'ni muloqot qilish qobiliyatlari va ijtimoiy moslashuvi psixologik rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Tadqiqot davomida A.M. Shetininina va M.A. Nikoforovalarning "Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatlarning namoyon bo'lishini kuzatish xaritasi" metodikasi qo'llanilgan bo'lib, bu metodika asosida bolalarning quyidagi xususiyatlari baholandi: empatiya, hayrihoxlik va samimiylik, muloqotga ochiqlik, qarama-qarshilikka munosabat, tashabbuskorlik va yetakchilik, perseptiv va operativ kommunikativ qobiliyatlar namoyon bo'lishini kuzatiladi.



3-rasm. A.M. Shetina va M.A. Nikoforovalarning "Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatlarning namoyon bo'lishini kuzatish xaritasi" metodikasi natijalari

Birinchi "Muloqot qobiliyatining rivojlanishining o'rtacha" guruhi – 66% bolalarining psixologik tahlili shuni ko'rsatdiki, bu guruhdagi bolalar umumiy kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lib, asosiy muloqot qoidalarini tushunadilar va kattalar bilan aloqa o'rnatishda muammolarga duch kelmaydilar. Biroq, bu bolalar hali ham aktiv tashabbus ko'rsatishda qiyinchiliklarga ega, ya'ni o'z fikrini aniq ifodalash yoki yangi suhbatni boshlashda muammolar kuzatilishi mumkin. Ular doimiy ravishda kattalarning rag'batlantiruvchi va ko'rsatmalariga ehtiyoj sezadilar.

Bolalar bu bosqichda muloqotni ongli ravishda shakllantira boshlaydilar. O'yinlar va jamoaviy mashg'ulotlar orqali ijtimoiylashuv jarayoni kechmoqda. Ba'zi bolalar ijtimoiy o'zaro munosabatda sustlik ko'rsatadi, bu esa kommunikativ ko'nikmalarni namoyon etadi.

Ikkinchi "Muloqot qobiliyati rivojlanganligining yuqori" guruhi – 18.4% dagi bolalarning psixologik tahlili ushbu guruhdagi bolalar tashabbuskor, faol muloqotga kirishadi va yangi odamlar bilan osongina aloqa o'rnatadi. Ular suhbat davomida o'z fikrlarini aniq ifodalashga harakat qiladi, boshqa bolalarga yordam ko'rsatishga moyil bo'ladi. Yetakchilik fazilatlarini rivojlangan bo'lib, jamoaviy ishda ustunlik qilishga intiladi.

Uchinchi "Muloqot qobiliyati rivojlanganligining juda yuqori" guruhi – 11.2% bolalari psixologik tahlilida shu jihatlarni kuzatish mumkin bo'ldi. Ushbu guruhdagi bolalar nafaqat faol muloqot qiladi, balki emosional sezgirlik va yuqori empatiya darajasiga ega. Ular yangi vaziyatlarga tez moslashish va kattalar bilan ham, tengdoshlari bilan ham oson aloqa o'rnatadi.

To'rtinchi "Muloqot qobiliyati rivojlanganligining past" guruhi – 4.4% dagi bolalar psixologik tahlilida esa quyidagi jihatlarni ko'rindi. Ushbu bolalar muloqotga sust, ijtimoiy vaziyatlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. O'z fikrlarini aniq ifodalashda muammolarga ega va yangi odamlar bilan muloqot qilishdan qochadi, ular odatda passiv kuzatuvchi sifatida qoladi yoki boshqa bolalar tomonidan nazorat qilinadi.

